



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЙ



**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»
MAVZUSIDAGI II XALQARO
ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA**

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,
Y.Shirnova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



oluvchining so'z boyligi oshishiga ham erishiladi. Yoki talaffuz mashqi tugagach, o'quvchilarning o'zlariga o'zbekcha so'zlarga ma'nosi to'g'ri keluvchi boshqa so'zlar topish topshirig'i berilsa, ularning mustaqil ishlashlariga, fikrlashlariga, oldin o'rganilganlarini amaliyotda qo'llashlariga sharoit yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmonova O'. Talaffuz madaniyati. –T.: Fan, 1976. – 3 b.
2. Mirtojiyev M. O'zbek tili fonetikasi. – T.: Fan, 2013 – 121 b.
3. Bobomurodova A.Y. Ona tili ta'limi jarayonida o'yin-topishmoqlardan foydalanish. Ped. fan nomzodi diss. – Toshkent, 1996.
4. Ibrohimov S. Nutq madaniyati va adabiy talaffuz haqida. –T.: Fan, 1972.
5. Mirtojiyev M. O'zbek tili to'g'ri talaffuzsi. – T.: Fan, 2013.
6. Mirtojiyev M. O'zbek tili to'g'ri talaffuzsi. – T.: Fan, 2013. – 424 b.
7. 40. Ne'matov H., G'ulomov A., Abduraimova M., Qosimova N. Ona tili. Umumta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – T.: O'qituvchi, 2000. – 144 b.
8. 41. Ne'matov H., G'ulomov A., Ziyodova T. O'quvchilar so'z boyligini oshirish. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. –T.: O'qituvchi, 1996. – 125 b.
9. 42. Ne'matov H. O'zbek tili tarixiy to'g'ri talaffuzsi. –T.: O'qituvchi, 1992 –92 b.
10. Atamurodova G.Sh. (2024). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida to'g'ri talaffuz ko'nikmalarini shakllantiruvchi o'quv topshiriqlar tizimi. Наука и инновация, 2(20), 33–38. Извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/scin/article/view/46652>.
11. Atamurodova G.Sh. (2024). Boshlang'ich sinfda matn ustida ishlash orqali to'g'ri talaffuz ko'nikmalarini hosil qilishda fonetik mashq va topshiriqlardan foydalanish. Академические исследования в современной науке, 3(29),5–11. Извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/arims/article/view/50256>.
12. Atamurodova G.Sh. Educational tasks that develop the skills of correct pronunciation in elementary grades. (2024). International journal of advance scientific research, 4(06), 107-114. <https://doi.org/10.37547/ijasr-04-06-17>.

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/SJCE7574

IJOD MAKTABLARIDA YOZMA NUTQ KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHGA OID AMALIY TOPSHIRIQLAR TAVSIFI

Baxtiyorova Xusnora Muzaffar qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU o'qituvchisi

husnorabaxt4998@gmail.com

Orcid:0009-0006-6690-5744

Annotatsiya. Ushbu maqolada matn tuzilishi, ijod maktablarida yozma ishlarni tashkil qilish, yozma nutq ko'nikmasini shakllantirish bilan bog'liq topshiriqlardan namuna hamda ularning amaliy tavsifi keltirilgan.

Kalit so'zlar: matn, matn tuzilishi, mazmun, uslub, leksik-grammatik vositalar, til birliklari.

Аннотация. В статье представлены примеры заданий по структуре текста, организации письменной работы в творческих школах, формированию навыков письменной речи, а также их практическое описание.

Ключевые слова: текст, структура текста, содержание, стиль, лексико-грамматические средства, языковые единицы.



Abstract. This article presents examples of tasks related to text structure, organization of written work in creative schools, and the formation of written speech skills, as well as their practical description.

Keywords: text, text structure, content, style, lexical and grammatical means, language units.

Ona tili ta'limida o'quvchilarning yozma savodxonligi, matn yaratish malakasini oshirish masalasi :mo metodist olimlarning diqqat-e'tiborida bo'lib kelgan.

N.Bekniyazovaning "Boshlang'ich sinflar ona tili darslarida o'quvchilarni matn yaratishga o'rgatish metodikasi" [Бекниязова Н. 2012. – 160 б], M.Rixsiyevaning "Ta'lim rus tilida olib borilayotgan maktablarning o'zbek tili darslarida o'quvchilarni matn tuzishga o'rgatish metodikasi"[Рихсиева М.М. 1996. – 144], K.Mavlonovaning "Ona tili fanini adabiyot fani bilan badiiy matn orqali integratsiyalab o'qitish metodikasini takomillashtirish"[Mavlonova K. 2008], M.Qurbonova, M.Yo'ldoshevlarning "Matn tilshunosligi" [Qurbonova M., Yo'ldoshev M. Matn lingvistikasi. 2014. – 114 b.] o'quv qo'llanmalari, Q.Qosimova, N.Mahmudov va boshqalar tomonidan yaratilgan tadqiqot ishlari, monografiya, metodik qo'llanmalarda hamda amaldagi "Ona tili" darsliklari yuzasidan o'qituvchilar uchun yozilgan metodik adabiyotlarda yozma ishlarni tashkil qilish, bog'lanishli nutq tuzish, matn, matn strukturasi, tuzilishi, turlari, o'ziga xos xususiyatlari ilmiy jihatdan o'rganilgan.

MDH davlatlari olimlaridan M.Loseva, M.R.Lvov, I.R.Galperin, N.S.Pospelov kabi tilshunos olimlarning matn strukturasi o'rganib, matn lingvistikasiga oid kerakli xulosalar olindi.

Yuqorida nomlari qayd etilgan tadqiqot ishlari hamda tajriba-sinov jarayonidan olgan xulosalarimiz asosida matn tuzilishini o'rgatishga oid quyidagi fikr-mulohazalarimizni keltiramiz:

Maktabda yozma matn sifatida asosiy e'tibor diktant, bayon va inshoga qaratiladi. Bunda asosan badiiy bo'yoqdorlikka urg'u beriladi. Xususan, o'quvchini faqat badiiy matn yaratishga emas balki uni real nutq vaziyatidan kelib chiqib yozma matn yarata olishi: ma'lumotni tavsiflashi, yuzaga keladigan vaziyatning sababi va uning natijalarini aniqlay olishi, o'rtaga tashlangan muammoga erkin va asosli fikr yechim topa olishi hamda real voqealarni kuzatish orqali fikrlash va o'z fikrini dalillashga o'rgatishga qaratilgan yozma matn yaratish turlaridan foydalanishga o'rgatish maqsadga muvofiq.

O'quvchilarga tasviriyl matn yozdirganda ko'proq namoyon bo'ladi. Tasvir quroli sifatida badiiy uslubga xos bo'lgan bo'yoqdor so'zlar, leksik qoliplarda foydalanadi. Holbuki, biz vaziyat taqozosi bilan ko'rgan kishimizni tashqi ko'rinishi tasvirlay olishimiz, turgan manzilimizni tushuntira olishimiz hamda yo'nalish so'ragan kishiga to'g'ri yo'llanma bera olishimiz lozim. Bunday vaziyatlarda o'quvchilar nutqida tasviriyl matn strukturasi hosil qilishga xizmat qiluvchi quyidagi til birliklarini bog'lab o'rgatish maqsadga muvofiq:

- joy nomlarini tasvirlashda ko'makchilardan o'rinli foydalana olish;



- kishilarning tashqi ko'rinishini tasvirlashda sifatning ma'no turlaridan o'rinli foydalan olish;
- yo'nalishni tushuntirishda payt va o'rin-joy ravishlaridan maqsadli foydalana olish.

Dastlab, o'quvchilarga ikki xil uslubda yozilgan bir xil mazmundagi tasviriy matn taqdim etiladi. Bunda birinchi matn badiiy uslubda bo'lsa, ikkinchi matn ilmiy-ommabop uslubda yozilgan matn ko'rinishida bo'ladi.

- Berilgan tasviriy matnlarni o'qing. Ularni o'xshash va farqli tomonlarini izohlang.

<i>Kumush – quyuq jingalak kipriklari ostidan tim qora ko'zlari boqib turguvchi, qop-qora kamon, o'tib ketkan nafis, qiyiq qoshlari chimirilgan-da, nimadir bir narsadan cho'chigan kabi ko'ringuvchi, to'lg'an oydek g'uborsiz oq yuzlik o'n yetti-o'n sakkiz yoshlardagi, marg'ilonlik Mirzakarim qutidor qizi, Otabekning ma'shuqasi;</i>	<i>Kumush – tirishqoq, quvnoq qiz. Sochlari sariq, jingalak, kalta qilib kesilgan. Ko'zlari moviy, kipriklari uzun, qirra burun. Qoshlari ingichka, ozg'in yuziga yarashib turadi. Baland bo'yli, ozg'in qiz. :m shoshib yuradi. Hamma fanlardan a'lo bahoga o'qiydi. Guruhning eng faol qizlaridan.</i>
---	---

Mazkur matnlar taqqoslash usuli orqali, badiiy uslub va ilmiy-ommabop uslubga xoslangan nutq birliklari orqali matndagi axborotni yetkazishga xizmat qilgan til birliklari tahlil qilinadi.

So'ngra o'quvchilarga quyidagi ikki xil vaziyat berilib, matn tuzishlari aytiladi. Dastlabki matn tuzish jarayonida o'quvchilarning mavjud nutqi, ya'ni o'sha vaziyatga tushganda qanday birlikdan foydalanishi tekshiriladi.

Tasavvur qiling, mahallangizga ko'chib kelgan oila sizdan maktabingizga borish yo'lini so'radi, qanday tushuntirasiz?

Tasavvur qiling, siz uchun qadrli bo'lgan kuchugingizni sayrga olib chiqdingiz, to'satdan uni yo'lda adashtirib qo'ydingiz. Uni qidirish jarayonida kishilarga qanday tasvirlab berasiz?



O'quvchilarning yozgan matnlari tekshirilgandan so'ng, ulardagi xato va kamchiliklar aniqlanib, quyidagi topshiriqlar bosqichma-bosqich bajariladi.



Quyidagi nutq birliklaridan foydalanib, yo'nalishni qayta tushuntiring.

masofa uzoq, yaqin, ...km, ...metr,

joylashuv	<i>old, orqa, qarama-qarshi, past, yon, ro'baro, ust</i>
yo'naltirish	<i>to'g'riga, o'ngga, chapga, burilishda, qayrilganda, aylanib o'tganda</i>
nutq tartibi	<i>avval, so'ng, so'ngra, nihoyat, oldin, keyin</i>

Quyidagi nutq birliklaridan foydalanib, kuchugingizni qayta tasvirlang.

murojaat birligi *kechirasiz, bir daqiqaga mumkinmi, bir narsa so'rasam maylimi, ...ko'zingiz tushmadimi,*

shakli	<i>katta, kichik, uzun, qisqa, yumoloq, jingalak, tekis</i>
rangi	<i>qora, oq, ola, malla, sarg'ish</i>
xususiyat	<i>yungli, baland ovozli, yuvosh, qopqir</i>

O'quvchilarga mazkur jadval asosida matnni qayta tuzishlari aytiladi. So'ngra, matnlar tahlil qilinib, munosabat bildiriladi.

Tanqidiy fikrlashga yo'naltirilganligi

Maktab jarayonida ko'p kuzatiladigan xatoliklardan biri o'quvchilarining xatolari ustida ishlamaslik. Yuqorigi boblarda aytib o'tilganidek, matn tuzishga oid ko'plab topshiriqlar uy vazifasi sifatida berib yuborilib, qayta tahrir qilinmasligi. Bu kabi jarayonni oldini olish, o'quvchilarga tanqidiy fikrlash, o'z xatolari ustida ishlash ko'nikmasini shakllantirish maqsadida quyidagi mashq turlaridan foydalanildi:

- Berilgan e'lon matni bilan tanishing. Unda qanday xatoliklar kuzatilgan? Xatoliklarni aniqlab, namuna asosida jadvalni to'ldiring.

ELON.

“Malakali hisobchi ishga olinadi”!

“mars” korxonasiga o'z soxasining ustasi bo'lgan hisobchi ishga qabul qilinadi.

Hisobchiga qo'yiladigan talablar:

- oliy ma'lumotli;
- kirishuvchan, xushmuomala;
- sabr toqatli;
- izlanuvchan.

Hisobchi hisob kitob va kompyuterni yaxshi bilishi kerak.

Oyligi 2 million so'm.

Manzil: toshkent shahar Olmazor tumani.

mars@69.gmail.com pochta orqali bog'laning



KUZATILGAN XATOLIKLAR TO'G'RI VARIANTI

Tinish belgilarini qo'llash + "Malakali hisobchi ishga olinadi!"

Bosh harflar imlosi

Chiziqcha bilan yozish

Qo'shma so'zlar imlosi

Qo'shimchalar imlosi

So'zni noto'g'ri qo'llash

Tasavvur qiling, sizning xususiy korxonangiz bor. Korxonadagi hisob-kitob ishlarini yuritish uchun malakali hisobchi izlayapsiz. Mutaxassis uchun, e'lon matni yozing. Quyidagi yo'riqnomadan foydalaning:

- korxonangiz nomi;
- hisobchiga qo'yiladigan talablar;
- hisobchida shakllangan sifatlar;
- hisobchi bilishi lozim bo'lgan sohalar;
- to'lanadigan maosh;
- ajratilgan ish soati;
- bog'lanish uchun manzil.

Mazkur topshiriqda dastlab o'quvchi matn bilan tanishib chiqadi. So'ngra berilgan jadval va namuna asosida e'lon matnidagi xatolarni aniqlab, yozishi aytiladi. Bu jarayonda o'quvchilarga matn tuzish jarayonida kuzatilishi mumkin bo'lgan xatoliklar ro'yxati berilgan bo'lib, bu o'quvchini e'lon matnidagi shakliy va matniy xatolarni aniqlashga yo'naltirib turadi.

Topshiriqning ikkinchi bosqichida o'quvchiga berilgan nutqiy vaziyatga kirishgan holda yo'riqnoma asosida matn yozishi aytiladi. Ushbu topshiriq o'quvchilarga matn tahriridan keyin taqdim etilgan bo'lib, matn tuzish jarayonida tahrirdagi xatoliklarni takrorlamasliklariga yo'riqnoma vazifasini bajaradi. Bu kabi topshiriqlar o'quvchilarni berilgan nutqiy vaziyatlar asosida munosabat bildirish, o'z fikrini mustaqil og'zaki va yozma bayon qila olish ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Cristina Cadavid. Teaching English in Primary School through a Spiral Thematic Curriculum. Ikala, revista de lenguaje y cultura., 2003.
2. Mavlonova K. Ona tili darslarida matn tuzilishini o'rgatish metodikasi. Monografiya. – Toshkent: Anorbooks, 2023. – 264 b.
3. Mavlonova K. va b. Maktab o'quvchilarida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish (filologiya fanlari). Metodik qo'llanma. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 154 b.
4. Mavlonova K. va b. Matn tuzilishiga :r qoidalar. 5-sinf o'quvchilari uchun o'quv-metodik qo'llanma. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 120 b.
5. Rahimova M. Esse (insho) matnlari sarlavha stilistikasi. Til va adabiyot ta'limi. Toshkent, 2022-yil 3-son. – 17–19-bet.



DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/IJTE5374

**ESSE YOZISHDA YO'L QO'YILADIGAN XATOLAR VA ULAR USTIDA ISHLASH
USULLARI****Avezova Dilnura Bayramovna***Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti mustaqil
tadqiqotchisi
davezova80@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur tezisda esse yozishda o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yiladigan xatolar va ularning tahlili hamda xatolarni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalar xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: esse, adabiy tahrir va korrektura, matn, yozma nutq.

Аннотация. В данной диссертации рассматриваются наиболее распространенные ошибки, допускаемые студентами при написании эссе, их анализ и рекомендации по их устранению.

Ключевые слова: эссе, литературное редактирование и корректура, текст, письменная речь.

Annotation. This thesis discusses the most common mistakes made by students when writing essays and their analysis, also recommendations for eliminating them.

Keywords: essay, literary editing and proofreading, text, written speech.

O'quvchilarning yozma nutq malakalarini rivojlantirish masalasi ona tili ta'limining eng asosiy maqsadlaridan biri sanaladi. Ona tili ta'limida yozma nutq malakalarini shakllantirish jarayoni turli uslubdagi matnlarni yaratish bilan bog'liq holda olib borilib, ular orasida aynan esse yozish, yozilgan esselarni muayyan mezon asosida baholash masalasi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Yozma nutqni rivojlantirish murakkab jarayon bo'lib, bunda har bir yozma ish turining o'ziga xos jihatini hisobga olish, unda shakl va mazmun birligiga erishish muhim hisoblanadi. Shakl jihatdan so'z va qo'shimchalarni to'g'ri qo'llash, gap, ularning o'zaro bog'lanishi, tinish belgilaridan o'rinli foydalanish, so'zlar imlosiga e'tiborli bo'lish, xatboshilarni to'g'ri aniqlash singari ko'nikmalar talab etilsa, mazmun jihatdan rejani to'g'ri tuza olish, berilgan mavzuni to'la yoritish, qo'yilgan maqsaddan uzoqlashmaslik, fikrlarni asoslash, shaxsiy munosabatni ifodalash, muayyan muammoga nisbatan turli yechimlarning taklif etilganiga diqqatni qaratish lozim bo'ladi.

"Ona tili ta'limida o'quvchilarning esse yozish malakasini rivojlantirish metodikasi" mavzusidagi tadqiqot ishi bo'yicha olib borilgan tajriba-sinov ishlaridan ma'lum bo'ldiki, 10–11-sinf o'quvchilari esse yozishda eng ko'p uchraydigan xatoliklar publitsistik uslub qoidalaridan chetga chiqish, mavzuga aloqador bo'lmagan argumentlar orqali fikrlarni dalillash, xatboshilarga to'g'ri ajratmaslik, juda uzun, hajmi katta jumladan foydalanish, shaxsiy munosabatning sezilmasligi, berilgan mavzuning muhimligini qayta takrorlash, mavzudan uzoqlashish, hikmatli so'z, sitataning muallifi haqida ma'lumot



<i>MASALASI</i>	
<i>Abdiraimova Khusnobod Samat kizi. KOGNITIV VA METAKOGNITIV O'QIB TUSHUNISH STRATEGIYALARI</i>	597
<i>Xonzodabegim Abdiyeva Turdiboy qizi. ONA TILINI O'QITISHDA FOTO MATERIALLARDAN FOYDALANISH</i>	603
<i>Abduqaxxorova Durdona Farxod qizi. SO'ZNING SEMANTIK TARKIBIDA ASOS VA AFFIKSLARNI O'QITISH USULLARI</i>	605
<i>Ahmadjonova Umida Ikromjon qizi. ONA TILI TA'LIMIDA O'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRUVCHI O'QUV TOPSHIRIQLAR TAHLILI</i>	614
<i>Askarova Mashxura Akmal qizi. NOFILOLOGIK YO'NALISHLARDA DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA O'ZBEK TILINI O'QITISH</i>	620
<i>Atamurodova Gulnora Shermurodovna. TALAFFUZI QIYIN BO'LGAN AYRIM NUTQ TOVUSHLARI USTIDA ISHLASH METODIKASI</i>	626
<i>Baxtiyorova Xusnora Muzaffar qizi. IJOD MAKTABLARIDA YOZMA NUTQ KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHGA OID AMALIY TOPSHIRIQLAR TAVSIFI</i>	630
<i>Avezova Dilnura Bayramovna. ESSE YOZISHDA YO'L QO'YILADIGAN XATOLAR VA ULAR USTIDA ISHLASH USULLARI</i>	635
<i>Axmadjanova Malika Maxmudjon qizi. O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHDA LUG'AT BOYLIGINI SHAKLLANTIRISHNING MAVJUD HOLATI</i>	638
<i>Davronova Zebiniso Bahtiyor qizi. SEZGI A'ZOLARI ASOSIDA TASVIRIY MATN YARATISH JARAYONI TAHLILI</i>	646
<i>Ergasheva Lobarxon O'tkir qizi. TIL O'QITISH VA O'RGANISHDA AUTENTIK MATN VA UNDAN FOYDALANISHDAGI AFZALLIK VA KAMCHILIKLAR</i>	651
<i>Hamroyev Umid Mustafoyevich. O'QUVCHILARDA KOGNITIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH</i>	656
<i>Iskandarova Noila Muxtor qizi. PUBLITSISTIK USLUBNI O'RGANISH ORQALI O'QUVCHILARNING TANQIDIY VA IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH</i>	661
<i>Israilova Z. XORIJLIK TALABALARINING O'ZBEK TILIDA SO'Z O'ZLASHTIRISH BOSQICHLARI</i>	664
<i>Komilova Lola Nosillojevna. ONA TILI TA'LIMIDA DARAJALI TESTLAR</i>	670
<i>Axmadiyeva Ozoda Iskandar qizi. 10-SINF O'QUVCHILARINING OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI</i>	677
<i>Madina Axmadjanova Mahmudjon qizi. MUSTAQIL SO'Z TURKUMLARINI GRAMMATIK MINIMUM ASOSIDA O'QITISH TAMOIYILLARI</i>	682
<i>Komilov Xusanboy Bahodir o'g'li. ONA TILINI O'QITISHDA INTERFAOL DASTURLAR VA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH</i>	689
<i>Madvaliyev Orifjon Tolibovich. TAHRIR TA'LIMINI TASHKIL ETISH: DASTLABKI QADAMLAR</i>	693

